

2023- yil yanvar –iyul oyi uchun  
dastlabki ma'lumot



## FARG'ONA VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi boshqarmasi:  
(73) 241-97-68



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi. Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-iyul oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1 162,5 mln. AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **74,1 mln. AQSH** dollariga yoki **6,0 %** ga kamaydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **1 162,5 – 6,0 %**

(2022- y.: **1 236,7**)



### Saldo

2023- y.: - **339,0**  
(2022 y.: - **214,6**)



### Eksport

2023- y.: **411,7 - 19,4 %**

(2022- y.: **511,0**)



Tovarlar: **408,0**



Xizmatlar: **3,7**



### Import

2023- y.: **750,8 + 3,5 %**

(2022- y.: **725,6**)



Tovarlar: **749,1**



Xizmatlar: **1,7**



**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **411,7** mln. AQSH dollariga (**19,4** % ga kamaydi) va import hajmi **750,8** mln. AQSH dollariga (**3,5** % ga o‘sd) yetdi. Hisobot davrida **-339,0** mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### FARG‘ONA VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)

|                                                                                                                                                                              |                                                                                                                                                                             |                                                                                                                                                                                 |                                                                                                                                                                                     |                                                                                                                                                                              |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Rossiya</b><br><br><b>TSA – 331,6</b><br><br>Eksport: 191,6<br>Import: 141,0<br> 28,5 % | <b>XXR</b><br><br><b>TSA – 321,3</b><br><br>Eksport: 21,0<br>Import: 300,3<br> 27,6 %    | <b>Qozog‘iston</b><br><br><b>TSA – 134,5</b><br><br>Eksport: 22,2<br>Import: 112,3<br> 11,6% | <b>Qirg‘iz Respublik</b><br><br><b>TSA – 63,5</b><br><br>Eksport: 35,6<br>Import: 28,0<br> 5,5 % | <b>Turkiya</b><br><br><b>TSA – 58,0</b><br><br>Eksport: 29,7<br>Import: 28,3<br> 5,0 %  |
| <b>Afg‘oniston</b><br><br><b>TSA – 26,7</b><br><br>Eksport: 26,4<br>Import: 0,3<br> 2,3 %  | <b>Tojikiston</b><br><br><b>TSA – 25,5</b><br><br>Eksport: 18,6<br>Import: 6,9<br> 2,2 % | <b>Eron</b><br><br><b>TSA – 20,7</b><br><br>Eksport: 18,2<br>Import: 2,6<br> 1,8 %           | <b>Litva</b><br><br><b>TSA – 20,6</b><br><br>Eksport: 4,8<br>Import: 15,8<br> 1,7 %              | <b>Hindiston</b><br><br><b>TSA – 16,7</b><br><br>Eksport: 0,1<br>Import: 16,6<br> 1,4 % |

Farg'ona viloyati jahonning **76** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hisssasi Rossiyada (**28,5 %**), XXRda (**27,6 %**), Qozog'istonda (**11,6 %**), Turkiyada (**5,0 %**), Qirg'iz Respublikasida (**5,5 %**) va Afg'onistonda (**2,3 %**) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iz Respublikasi va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Tojikiston va Qozog'iston bilan **1,2** barobarga oshdi.



### TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)



Rossiya Federatsiyasi– 51,5



Afg'oniston – 26,2



Eron– 15,6



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Afg'oniston, Eron va Rossiya Federatsiyasi shular jumlasidandir. Qolgan **14** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



## FARG'ONA VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)

| Davlatlar                                                                                  | 2021- y.     | 2022- y.     | 2023- y.     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------|--------------|--------------|--------------|
| <b>Rossiya</b>                                                                             | <b>196,1</b> | <b>333,0</b> | <b>331,6</b> |
|  Eksport   | 116,8        | 178,6        | 191,6        |
| Import                                                                                     | 79,3         | 154,4        | 140,0        |
| <b>XXR</b>                                                                                 | <b>255,5</b> | <b>276,8</b> | <b>321,3</b> |
|  Eksport   | 64,9         | 44,4         | 21,0         |
| Import                                                                                     | 190,6        | 232,3        | 300,3        |
| <b>Qozog'iston</b>                                                                         | <b>162,6</b> | <b>154,9</b> | <b>134,5</b> |
|  Eksport   | 29,3         | 17,9         | 22,2         |
| Import                                                                                     | 133,3        | 137,0        | 112,3        |
| <b>Qirg'iz Respublikasi</b>                                                                | <b>83,1</b>  | <b>71,2</b>  | <b>63,5</b>  |
|  Eksport   | 55,3         | 39,8         | 35,5         |
| Import                                                                                     | 27,8         | 31,4         | 28,0         |
| <b>Turkiya</b>                                                                             | <b>66,7</b>  | <b>110,8</b> | <b>58,3</b>  |
|  Eksport | 39,2         | 71,0         | 29,7         |
| Import                                                                                     | 27,5         | 39,8         | 28,3         |
| <b>Afg'oniston</b>                                                                         | <b>15,6</b>  | <b>27,5</b>  | <b>26,7</b>  |
|  Eksport | 15,6         | 27,5         | 26,4         |
| Import                                                                                     | -            | -            | 0,3          |
| <b>Tojikiston</b>                                                                          | <b>16,1</b>  | <b>18,7</b>  | <b>25,5</b>  |
|  Eksport | 9,8          | 12,0         | 18,6         |
| Import                                                                                     | 6,3          | 5,7          | 6,9          |
| <b>Eron</b>                                                                                | <b>7,0</b>   | <b>19,0</b>  | <b>20,7</b>  |
|  Eksport | 4,6          | 15,9         | 18,2         |
| Import                                                                                     | 2,4          | 3,1          | 2,5          |
| <b>Litva</b>                                                                               | <b>4,9</b>   | <b>12,7</b>  | <b>20,6</b>  |
|  Eksport | 0,8          | 1,0          | 4,8          |
| Import                                                                                     | 4,1          | 11,7         | 15,8         |
| <b>Hindiston</b>                                                                           | <b>9,0</b>   | <b>16,5</b>  | <b>16,7</b>  |
|  Eksport | 0,4          | 0,1          | 0,1          |
| Import                                                                                     | 8,6          | 16,4         | 16,6         |

Davomi




|                                                                                    | Davlatlar                  | 2021- y.    | 2022- y.    | 2023- y.    |
|------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------|-------------|-------------|-------------|
|    | <b>Polsha</b>              | <b>22,3</b> | <b>26,6</b> | <b>16,0</b> |
|                                                                                    | <i>Eksport</i>             | 18,7        | 19,3        | 6,1         |
|                                                                                    | <i>Import</i>              | 3,6         | 7,3         | 9,9         |
|    | <b>Koreya Respublikasi</b> | <b>17,6</b> | <b>23,4</b> | <b>13,6</b> |
|                                                                                    | <i>Eksport</i>             | 4,9         | 2,8         | 0,3         |
|                                                                                    | <i>Import</i>              | 12,7        | 20,6        | 14,8        |
|    | <b>Germaniya</b>           | <b>11,9</b> | <b>14,3</b> | <b>14,8</b> |
|                                                                                    | <i>Eksport</i>             | 1,8         | 3,3         | 1,8         |
|                                                                                    | <i>Import</i>              | 10,1        | 11,0        | 13,0        |
|    | <b>Belarus</b>             | <b>6,0</b>  | <b>8,0</b>  | <b>13,1</b> |
|                                                                                    | <i>Eksport</i>             | 3,0         | 3,1         | 6,0         |
|                                                                                    | <i>Import</i>              | 3,0         | 4,9         | 7,1         |
|   | <b>Italiya</b>             | <b>6,3</b>  | <b>8,8</b>  | <b>11,1</b> |
|                                                                                    | <i>Eksport</i>             | 1,3         | 1,4         | 5,0         |
|                                                                                    | <i>Import</i>              | 5,0         | 7,4         | 6,1         |
|  | <b>Syangan</b>             | <b>0,7</b>  | <b>8,4</b>  | <b>8,9</b>  |
|                                                                                    | <i>Eksport</i>             | 0,1         | 0,1         | -           |
|                                                                                    | <i>Import</i>              | 0,6         | 8,3         | 8,9         |
|  | <b>Shveytsariya</b>        | <b>3,7</b>  | <b>4,0</b>  | <b>8,1</b>  |
|                                                                                    | <i>Eksport</i>             | 0,1         | 1,7         | 0,0         |
|                                                                                    | <i>Import</i>              | 3,6         | 2,3         | 8,1         |
|  | <b>Pokiston</b>            | <b>16,1</b> | <b>4,9</b>  | <b>5,4</b>  |
|                                                                                    | <i>Eksport</i>             | 15,8        | 4,2         | 4,9         |
|                                                                                    | <i>Import</i>              | 0,3         | 0,7         | 0,5         |
|  | <b>Latviya</b>             | <b>2,2</b>  | <b>1,7</b>  | <b>4,4</b>  |
|                                                                                    | <i>Eksport</i>             | 1,4         | 1,1         | 3,4         |
|                                                                                    | <i>Import</i>              | 0,8         | 0,6         | 1,0         |
|  | <b>Ispaniya</b>            | <b>1,5</b>  | <b>3,1</b>  | <b>4,3</b>  |
|                                                                                    | <i>Eksport</i>             | 0,4         | 0,9         | 0,1         |
|                                                                                    | <i>Import</i>              | 1,1         | 2,2         | 4,2         |



## FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-iyul)\*

|                          | Mln. AQSh<br>dollari | O'sish<br>sur'ati,<br>%da |
|--------------------------|----------------------|---------------------------|
| <b>Farg'ona viloyati</b> | <b>1 162,5</b>       | <b>94,0</b>               |
| Farg'ona sh.             | 151,7                | 55,5                      |
| Qo'qon                   | 212,1                | 84,7                      |
| Quvasoy                  | 34,2                 | 87,7                      |
| Marg'ilon                | 61,4                 | 107,7                     |
| <b>tumanlar</b>          |                      |                           |
| Oltiariq t.              | 107,6                | 161,5                     |
| Qo'shtepa                | 61,4                 | 94,2                      |
| Bag'dod                  | 25,6                 | 181,1                     |
| Buvayda                  | 23,0                 | 103,4                     |
| Beshariq                 | 55,1                 | 146,6                     |
| Quva                     | 27,5                 | 87,9                      |
| Uchko'prik               | 180,3                | 142,4                     |
| Rishton                  | 17,6                 | 184,5                     |
| So'x                     | 5,6                  | 94,0                      |
| Toshloq                  | 87,6                 | 74,9                      |
| O'zbekiston              | 25,6                 | 109,5                     |
| Farg'ona                 | 33,5                 | 77,2                      |
| Dang'ara                 | 38,7                 | 120,8                     |
| Furqat                   | 9,7                  | 52,8                      |
| Yozyovon                 | 3,4                  | 106,2                     |

**Eng yuqori hajm,**  
mln. AQSH dollari




**Eng quyi hajm,**  
mln. AQSH dollari



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Qoqon shahri **18,2 %** ulush bilan **212,1** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yozyovon tumani **0,3 %** ulush bilan **3,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## FARG'ONA VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **49,6** %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **7,1** % ga kamaydi.



Farg'ona viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-iyul oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **4,9** % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi **50,4** % ni tashkil etdi.



Farg'ona viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023-yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, **576,8** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **281,2** mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **295,6** mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



## FARG'ONA VILOYATNING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-iyul , mln. AQSH dollari)

### Rossiya

TSA – 331,6  
Eksport – 191,6  
Import – 140,0



### Qozog'iston

TSA – 134,5  
Eksport – 22,2  
Import – 112,3



### Qirg'iz Respublikasi

TSA – 63,5  
Eksport – 35,5  
Import – 28,0



### Belarus

TSA – 13,1  
Eksport – 6,0  
Import – 7,1



### Tojikiston

TSA – 25,5  
Eksport – 18,6  
Import – 6,9



### Ukraina

TSA – 2,6  
Eksport – 2,1  
Import – 0,5



### Turkmaniston

TSA – 1,2  
Eksport – 0,5  
Import – 0,7



### Ozarbajjon

TSA – 1,8  
Eksport – 1,7  
Import – 0,1



### Moldova

TSA – 1,1  
Eksport – 1,1  
Import – 0,0



### Armaniston

TSA – 1,8  
Eksport – 1,8  
Import – 0,0



Farg'ona viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**57,5 %**), Qozog'iston (**23,3 %**) hamda Qirg'iz Respublikasi (**11,0 %**) davlatlari bilan qayd etildi.




## FARG'ONA VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **613** taga yetdi va ular tomonidan **411,7** mln. AQSH dollari (2022- yilning mos davriga nisbatan **19,4** % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-iyul, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## FARG'ONA VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-iyul, yillar kesimida)

| XSST tarkibi                                                      | Mln. AQSH dollari |              | O'zgarish sur'ati, % da |             | Umumiy hajmga nisbatan, % da |              |
|-------------------------------------------------------------------|-------------------|--------------|-------------------------|-------------|------------------------------|--------------|
|                                                                   | 2022              | 2023         | 2022                    | 2023        | 2022                         | 2023         |
| <b>Jami eksport</b>                                               | <b>511,0</b>      | <b>411,7</b> | <b>120,5</b>            | <b>80,6</b> | <b>100,0</b>                 | <b>100,0</b> |
| <i>shu jumladan:</i>                                              |                   |              |                         |             |                              |              |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar                        | 139,6             | 182,5        | 107,0                   | 130,8       | 27,3                         | 44,3         |
| Ichimliklar va tamaki                                             | 0,4               | 1,0          | 180,6                   | 243,2       | 0,1                          | 0,3          |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari                       | 22,3              | 15,0         | 155,0                   | 67,0        | 4,4                          | 3,6          |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 9,4               | 2,6          | 220,8                   | 27,3        | 1,8                          | 0,6          |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar       | 0,1               | 0,0          | 484,4                   | 12,3        | 0,0                          | 0,0          |
| Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar                 | 34,3              | 13,7         | 441,0                   | 39,9        | 6,7                          | 3,3          |
| Sanoat tovarlari                                                  | 261,6             | 142,6        | 115,4                   | 54,5        | 51,2                         | 34,6         |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalar                           | 3,8               | 3,8          | 145,1                   | 98,6        | 0,8                          | 0,9          |
| Turli xil tayyor buyumlar                                         | 33,8              | 47,0         | 114,0                   | 139,0       | 6,6                          | 11,4         |
| Xizmatlar                                                         | 5,7               | 3,7          | 70,2                    | 64,3        | 1,1                          | 0,9          |

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **92,1 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**36,4 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**44,3 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**11,4 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## FARG'ONA VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-iyul)

| XSST bo'limi nomi                                                                                         | Mln.<br>AQSH<br>dollari | 2022- yilning<br>mos davriga<br>nisbatan,<br>% da |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------|---------------------------------------------------|
| <b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>                                                         |                         |                                                   |
| Sabzavotlar va mevalar                                                                                    | 144,2                   | 122,8                                             |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar                                                         | 3,2                     | 15,2                                              |
| Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)                                               | -                       | -                                                 |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar                                         | 3,7                     | 3,6 m.                                            |
| <b>Ichimliklar va tamaki</b>                                                                              |                         |                                                   |
| Ichimliklar                                                                                               | 1,0                     | 2,4 m.                                            |
| Tamaki va tamaki mahsulotlari                                                                             | -                       | -                                                 |
| <b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>                                                        |                         |                                                   |
| To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari                                                           | 5,9                     | 53,6                                              |
| Metal rudalar va metal parchalari                                                                         | 0,6                     | 20,1                                              |
| Qog'oz massasi va makulatura                                                                              | 6,7                     | 114,1                                             |
| Xayvonlar va usimliklardan kelib chikkan xom-ashyo materiallari, boshka joyda tasniflanmagan              | 0,6                     | 158,3                                             |
| <b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>                                  |                         |                                                   |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar                                                  | 2,5                     | 28,5                                              |
|                                                                                                           |                         |                                                   |
| Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; mumlar; texnik aralashmalar va preparatlar | -                       | -                                                 |
| <b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>                                                  |                         |                                                   |
| Noorganik kimyo moddalari                                                                                 | 1,4                     | 122,0                                             |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar                                                                         | 0,5                     | 122,7                                             |
| O'g'itlar                                                                                                 | 7,1                     | 23,8                                              |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar                                           | 2,4                     | 162,7                                             |




| XSST bo'limi nomi                                                                                              | Mln.<br>AQSH<br>dollari | 2022-<br>yilning mos<br>davriga<br>nisbatan,<br>% da |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------|------------------------------------------------------|
| <b>Sanoat tovarlari</b>                                                                                        |                         |                                                      |
| To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar                          | 29,4                    | 12,0                                                 |
| Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar                                  | 3,6                     | 2,1 m.                                               |
| Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan maxsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan                             | 8,7                     | 78,2                                                 |
| Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan                                                 | 1,1                     | 75,0                                                 |
| <b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>                                                                |                         |                                                      |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari                                         | 1,0                     | 137,7                                                |
| Avtomobillar (shu jumladan havo transporti vositalari )                                                        | 1,2                     | 53,6                                                 |
| Aniq soxalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar                                                             | 0,9                     | 2,0 m.                                               |
| Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan | 0,2                     | 71,5                                                 |
| <b>Turli xil tayyor buyumlar</b>                                                                               |                         |                                                      |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari                                                                          | 36,7                    | 164,0                                                |
| Har xil tayyor buyumlar                                                                                        | 3,0                     | 86,1                                                 |
| Poyabzal                                                                                                       | 2,3                     | 45,2                                                 |
| Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar                                                       | 1,1                     | 96,9                                                 |

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida MDH mamlakatlariga **281,2** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **0,3** % ga o'sdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Afg'oniston, Qozog'iston, XXR va Eron kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy Eksportdagi ulushi **83,7** % ni tashkil etdi.



## FARG'ONA VILOYATIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-iyul, % da)





## FARG'ONA VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-iyul, yillar kesimida)*



| Davlatlar            | Mln. AQSH dollari |       | O'sish sur'ati,<br>% da |        | Egallab turgan<br>o'rni |      |
|----------------------|-------------------|-------|-------------------------|--------|-------------------------|------|
|                      | 2022              | 2023  | 2022                    | 2023   | 2022                    | 2023 |
| Rossiya              | 178,6             | 191,6 | 152,9                   | 107,3  | 1                       | 1    |
| Qirg'iz Respublikasi | 39,8              | 35,6  | 72,0                    | 89,3   | 4                       | 2    |
| Turkiya              | 71,0              | 29,7  | 181,4                   | 41,8   | 2                       | 3    |
| Afg'aniston          | 27,5              | 26,4  | 176,7                   | 96,2   | 5                       | 4    |
| Qozog'iston          | 17,9              | 22,2  | 61,2                    | 123,9  | 8                       | 5    |
| XXR                  | 44,4              | 21,0  | 68,4                    | 47,2   | 3                       | 6    |
| Tojikiston           | 12,0              | 18,6  | 123,2                   | 154,8  | 10                      | 7    |
| Eron                 | 15,9              | 18,2  | 3,5 m.                  | 113,8  | 9                       | 8    |
| Polsha               | 19,3              | 6,1   | 103,2                   | 31,7   | 7                       | 9    |
| Belarus              | 3,1               | 6,0   | 102,8                   | 193,0  | 15                      | 10   |
| Italiya              | 1,4               | 5,0   | 107,6                   | 3, m.  | 24                      | 11   |
| Pokiston             | 4,2               | 4,9   | 26,7                    | 115,6  | 13                      | 12   |
| Litva                | 1,0               | 4,8   | 133,4                   | 4,7 m. | 29                      | 13   |
| Latviya              | 1,1               | 3,4   | 84,0                    | 3,0 m. | 27                      | 14   |
| Ukraina              | 1,9               | 2,1   | 83,0                    | 110,4  | 21                      | 15   |
| Germaniya            | 3,3               | 1,8   | 181,8                   | 55,0   | 14                      | 16   |
| Armaniston           | 0,9               | 1,8   | 2,6 m.                  | 2,1 m. | 32                      | 17   |
| Ozarbajjon           | 0,9               | 1,8   | 185,6                   | 186,6  | 30                      | 18   |
| Gruziya              | 0,3               | 1,7   | 2,3 m.                  | 5,1    | 41                      | 19   |
| Bolgariya            | 0,2               | 1,4   | 2,9 m.                  | 6,6 m. | 45                      | 20   |



## FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-iyul)\*

|                          | Mln. AQSH<br>dollari | O'sish<br>sur'ati,<br>%da |
|--------------------------|----------------------|---------------------------|
| <b>Farg'ona viloyati</b> | <b>411,7</b>         | <b>80,6</b>               |
| Farg'ona sh.             | 34,5                 | 67,5                      |
